



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

20 25 yil “ 24 ” iyul _____

№ 226 _____

Toshkent sh.

Kasalliklarni ambulator sharoitida davolash uchun Reimbursatsiya dasturiga kiritilgan dori vositalari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasalliklarni ambulator sharoitda davolashda dori vositalari xarajatlarini qoplash bo‘yicha reimbursatsiya dasturi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 2-oktabrdagi 619-son va “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajimlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 19-iyundagi 382-son qarorlarini ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajimlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 19-iyundagi 382-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kasalliklarni ambulator sharoitida davolash uchun Reimbursatsiya dasturiga kiritilgan dori vositalari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshliqlari reimbursatsiya dasturini amaliyotga tatbiq qilish va aholini zarur dori vositalari bilan ta‘minlashga shaxsan mas’ul ekanligi belgilansin.

4. Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi (Z.Ermatov) reimbursatsiya dasturini davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilishini ta‘minlansin.

5. Onalik va bolalarni muhofaza qilish boshqarmasi (N.Hamraev) bir hafta muddatda “Sklerozlanuvchi panentsefalit (A81.1)” kasalligi mavjud bemorlarning

ro'yxatini hududlar kesimida shakllantirish hamda Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasiga taqdim qilish choralarini ko'rsin.

6. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (N. Eshnazarov) Yagona integrator—"Uzinfocom" MChJ bilan birgalikda bir oy muddatda "Yagona tibbiyot axborot tizimi" (DMED)da taqdim etilgan "Sklerozlanuvchi panentsefalit (A81.1)" tashxisi qo'yilgan bemorlar ro'yxaitini elektron bazaga kiritilishi hamda Reimbursatsiya dasturi doirasida beriladigan tegishli dori vositasi uchun elektron retsept faqat mazkur bemorlarga rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

7. Matbuot xizmati (F.Sanayev) davlat tibbiy sug'urta mexanizmlari, shu jumladan reimbursatsiya dasturini joriy qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish choralarini ko'rsin.

8. Sog'liqni saqlash vazirining 2025 yil 11 apreldagi 95-sonli va 96-sonli buyruqlari bekor qilinsin.

9. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari E.Basitxanova zimmasiga yuklansin.

Vazir



A.Xudayarov

Sog'liqni saqlash vazirining
2025 - yil 24 - iyuldagi
226 - son buyrug'iga
ilova

**Kasalliklarni ambulator sharoitida davolash uchun ishlatiladigan va
Reimbursatsiya dasturiga kiritilgan dori vositalari**

RO'YXATI

T/r	Xalqaro patentlanmagan nomi	Dori shakli
I. Me'da-ichak tizimi patologiyalarini davolash uchun qo'llaniladigan vositalar		
Proton nasos ingibitorlari		
1	Omeprazol	tabletk (20 mg, 40 mg)
II.Periferik adrenergik jarayonlarga ta'sir qiluvchi vositalar		
Astmaga qarshi va o'pka surunkali obstruktiv kasalligida qo'llaniladigan vositalar		
2	Salbutamol	aerozol (100 mkg/doza 7 gr 200 doza)
III. Endokrin tizimi patologiyalarini davolash uchun qo'llaniladigan vositalar		
Yod preparatlari		
3	Kaliy yodid	tabletk (200 mkg)
Antitireoid vositalar		
4	Tiamazol	tabletk (5 mg)
Qalqonsimon bez gormonlari		
5	Levotiroksin natriy	tabletk (100 mkg)
Qandsiz diabetga qarshi vositalar		
6	Desmopressin	burun tomchisi (100 mkg/ml 5 ml)
		burunga sepish uchun sprej (10 mkg/doza 5ml)
Diabetga qarshi vositalar		
7	Gliklazid	tabletk (30 mg; 60 mg)
8	Metformin	tabletk (500 mg; 1000 mg)
9	Empagliflozin	tabletk (10 mg; 25 mg)
Buyrak usti bezi po'stloq qismi gormonlari, glyukokortikoidlar		
10	Prednizolon	tabletk (5 mg)
IV.Balg'am ko'chiruvchi vositalar		
11	Ambroksol	tabletk (30 mg)

V. Yurak-qon tomir tizimiga ta'sir etuvchi dori vositalari		
Antiaritmik vositalar		
12	Verapamil	tabletk (80 mg)
Antianginal vositalar		
13	Izosorbid dinitrat	sprey (1,25 mkg/doza 15 ml 300 doza)
		tabletk (10 mg)
14	Izosorbid mononitrat	tabletk (20 mg; 40 mg)
Antiagregantlar		
15	Asetilsalitsil kislotasi	tabletk (75 mg; 150 mg)
16	Klopidogrel	tabletk (75 mg)
Selektiv (kardioselektiv) β 1–adrenoblokatorlar		
17	Bisoprolol	tabletk (2,5 mg; 5 mg; 10 mg)
Gipolipidemik vositalar		
18	Atorvastatin	tabletk (10 mg; 20 mg; 40 mg; 80 mg)
VI. Antigipertenziv vositalar		
Kalsiy kanallari blokatorlari		
19	Amlodipin	tabletk (2,5 mg; 5 mg; 10 mg)
Angiotenzinga aylantiruvchi ferment ingibitorlari		
20	Enalapril maleat	tabletk (2,5 mg; 5 mg; 10 mg; 20 mg)
VII. Trombotsitlar aggregatsiyasi va qon ivishiga ta'sir qiladigan vositalar		
21	Varfarin	tabletk (2,5 mg)
VIII. Diuretik va antidiuretik vositalar		
22	Spironolakton	tabletk (25 mg)
23	Furosemid	tabletk (40 mg)
IX. Vitaminlar va ularning hosilalari		
Vitaminlar		
24	Folat kislotasi	tabletk (1 mg; 5 mg)
X. Eritropoezni stimullovchi vositalar		
25	Temir Fe (II) birikmalari	tabletk (100 mg)
		kapsula (100 mg)
26	Temir Fe (III) birikmalari	tabletk (100 mg)
		kapsula (100 mg)
XI. Immunomodulyator va virusga qarshi dori vositalar		
27	Inozin pranobeks *	tabletk (500 mg)
XII. Parazitlarga va protozoylarga qarshi vositalar		
Gijjalarga qarshi vositalar		
28	Albendazol	tabletk (200 mg; 400 mg)
		suspenziya

**) Sklerozlanuvchi panentsefalit (A81.1) tashxisi qo'yilgan bemorlarga tayinlanadi.*

Izoh: Reimbursatsiya dasturi doirasida bemorlarga elektron retsept asosida beriladigan dori vositalari ro'yxati Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi;

Reimbursatsiya dasturi asosida bemorlarga beriladigan dori vositalari ro'yxatiga kiritilgan dori vositalari mavjud tibbiyot muassasalari hamda alohida dasturlar asosida xarid qilingan zaxiralari tugatilgandan so'ng reimbursatsiya dasturi asosida dorixonalar orqali bemorlarga beriladi.